

## XOLID HUSAYNIYNING "SHAMOL ORTIDAN YUGURIB" ROMANIGA TAVSIF

**Bozorova Shohsanam**

Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu asarni o'qir ekanmiz, afg'on xalqining madaniyati, qanchalik qadriyatlarga boy millat ekanini his etamiz. Vatandarlik, do'stlik, sadoqat kabi tushunchalar ushbu millat qoniga singib ketganini guvohi bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Pushtun, monarxiya, sadoqat, do'stlik, vijdon, qochqin.

Asli afg'on farzandi, keyinchalik ijtimoiy vaziyat taqozosi bilan AQSHda yashab ijod etgan iste'dodli yozuvchi Xolid Husayniyning "Shamol ortidan yugurib" asarini tahlilga tortdik. Ushbu asarni har tomonlama mukammal deb bimalol aytishimiz mumkin. Asar hayotiy, avtobiografik bo'lib, muallif bu asarida qismatdoshlari taqdirini o'z qahramonlarida tasvirlaydi.

"Shamol ortidan yugurib" romani kitob holida qirqdan ortiq tillarda, o'n mingdan ziyod nusxada nashr etilgan va o'z zamonining eng zo'r asarlar ro'yxatining birinchiligida bo'lgan.

Dastlab asarning bosh qahramoni Amir obraziga e'tiborimizni qaratsak. Amir onadan erta yetim qolgan, otasi bilan yaqin munosabat o'rnatishga harakat qiladigan, hikoyalar yozishni yaxshi ko'radigan, doim vatan sog'inchida qiynalgan va eng asosiysi bir kichik xatosi uni eng yaqin insoni, do'sti Hasandan ajralishiga sabab bo'lgani va vijdon azobida butun umr yashagan yigit holatida tasvirlangan. Bu azob uni yillar mobaynida qiynadi, azobladi va tarbiyaladi.

Ushbu asar taxminan 1979-2001-yillar oralig'ida Kobulning Vazir Akbarxon tumanida bo'lgan. Ushbu asardagi ayrim dahshatli hodisalar fonida Afg'oniston monarxiyasining qulashi bilan sovet harbiy aralashuvi, Pokiston va AQSHga qochqinlarning ko'chishi, Tolibon rejimiga ko'tarilishi bilan bog'liq.

Asarni o'qir ekanmiz, u bizni har bir qahramon holatiga tushib ko'rishga, ularni hissiyotlarini his etishga, o'ylashga, hattoki, o'rni kelganda ularga achinishga, yoki nafrat tuyishga undaydi. Bu asar kitobxonni shu darajada o'ziga maftun etadiki, har bir voqea-hodisa o'ziga xos tarbiyaviy jihatga egadir. Kitobxon asardan sadoqatni, otaga bo'lgan hurmatni, vatanga muhabbat qanday bo'lishi kerakligini, yolg'izlik naqadar yomonligini tushunadi va xulosa chiqaradi.

Amir otasini yoshligidan Bobo deb atagan, shu sababdan asarda uning asl ismi keltirilmagan. Bobo asarda baland bo'yli, alp qomat, pahlavon, cho'rtesar deb tasvirlangan. Hatto boboning eng yaqin do'sti Rahimxon ham u haqida: "Otang shu qadar qudratliki, hatto shaytonni ham oldida tiz cho'ktira oladi" - derdi. Lekin asar oxirida bu inson qanchalik kuchli bo'lmasin, o'z taqdiri oldida mag'lub bo'ladi, o'g'lini kelajagi tufayli bor-budidan kechib, o'ziga notanish bo'lgan ingliz diyorida yashashga majbur bo'ladi. U o'z zamonasining eng kuchli, eng boy odamlaridan bo'lganligi bilan, qariganida uning yolg'iz o'g'lidan boshqa hech narsasi ham, hech kimi ham qolmaydi. Yozuvchi ushbu qahramoni qismati bilan kitobxonlarga, bu umr o'tkinchiligini, mol-dunyoga bog'lanib qolmaslikni ko'rsatib beradi.

Endi esa asarning eng og'riqli nuqtasi bo'lmish Xasan haqida so'z yuritsak. Asar qahramoni tilidan muallif unga quyidagicha ta'rif beradi: "Yuzi dum-dumaloq, burning katta, xiyol yapasqi, qisiq ko'zlari bir qarasa sarg'ish, bir qarasa ko'kish zangori. Pastki tirtiqli labi ortidan oppoq tishlari ko'rinib turibdi. Bu holat xuddi mohir xitoy ustasi kulib turgan bolaning qo'g'irchog'ini yasay turib, uning labini bilmasdan kesib qo'yganday..."<sup>1</sup>

Hasanning qismati qolgan asar qahramonlaridan ko'ra ancha murakkab va ayanchlidir. Hasan har qanday vaziyatda do'stini yolg'iz qoldirmaydi. Doimo uni qo'llab-quvvatlaydi. Amirning ilk hikoyalarini, uning otasidan ko'ra, do'sti Hasan yuqori kayfiyatda tinglaydi. Shu jihatdan ham Amir "Hasan mening birinchi tanqidchim va adabiyotdagi birinchi ustozim bo'ldi" deb ta'kidlaydi. Asarda Hasan obrazini haqiqiy "SADOQAT" ramzi deb bimalol ayta olamiz. Hasan do'stiga umrini oxirigacha sodiq

1. X Husayniy "Shamol ortidan yugurib". - Toshkent: "Yoshlar matbuoti". 2022 - B. 4

2. X Husayniy "Shamol ortidan yugurib". - Toshkent: "Yoshlar matbuoti". 2022 - B. 127.

qoldi. Hattoki do'sti uni tashlab ketgan bo'lsa ham Hasan do'stidan qolgan uyni o'z uyiday asradi. Uni tolibonlardan himoya qildi. Hattoki shu yo'lda jon berdi.

"Afg'onistonda bolalar ko'p, ammo bolalik yo'q"<sup>2</sup>.

Afsuski, bu haqiqat. Ushbu asar yozilganiga nechi yillar o'tgan bo'lsa hamki, haligacha ushbu davlat notinj.

Asarda birgina Hasan obrazida butun Afg'oniston bolalarini tasvirlagan. Hasanni savodi yo'q edi. U o'qish va yozishni bilmasdi va bundan juda afsuslanardi. Amir esa juda ko'p kitoblar o'qirdi. Hasan undan kitob o'qib berishni so'rar edi. Amir va Hasanni eng sevgan asarlari "Shohnoma" bo'lib, bu asar ayniqsa, Hasanda juda katta taassurot qoldirgan va keyinchalik o'z o'g'lini ismini "Shohnoma"dagi sevimli qahramoni Suhrob deb nomlashi bejiz emas. Har gal Amirdan qayta-qayta shu asarni o'qib berishini so'rar edi. Amir o'qib bergandan keyin:

-Amir og'a, iltimos, yana bir marta o'qib ber, -derdi u ko'zlarida yosh bilan .

Ular har safar maktabdan qaytishda uylari ortidagi tepalikka chiqib kitobxonlik qilar, tepalikning bir chetida eski qabriston bo'lib, uning darvozasi oldida bir tup anor o'sardi. Uning tanasiga bir paytlar pakim bilan "Amir va Hasan -Qobulning hukmdorlari" deb o'yib qoldirgan edi. Yozuvchi nima uchun aynan anorni tanlagan? Sababi Afg'on diyori eng yaxshi anor yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rinda bo'lgan. Hatto BBCni bir axborotida Kobul anorlari Afg'on iqtisodiyotini qutqarishini ma'lum qilgan.

Afg'onistonda har yili qishda varrak uchirish musobaqasi bo'lgan va Amir otasini shu o'yinga qiziqishini bilar edi. Otasi bilan biroz yaqin bo'lish niyatida o'yinda g'olib bo'lishni istardi. Amirning bu istagini bilgan holda, Hasan uni qo'llab-quvvatlardi. Hasan juda ziyrak edi. Hatto Amirni o'zi "Agarda Hasan bo'lmasa, men yutqizar edim"<sup>3</sup> deb o'ylaydi.

Ushbu asardagi voqealar juda tahlikali va asar qahramonlarining har bir xatti-harakati juda ajoyib tasvirlangan.

"Qismatning o'yinini qarang, otam boyagina o'zi tanimagan bir ayolni ajnabiyning changalidan ozod etgandi, endi o'sha ayol boshqa bir insonning hayotini asrab qoldi"<sup>4</sup> .

Ha, har bir inson yon atrofidagi boshqa insonlar uchun javobgar ekanligi, befarq emasligi, ular shu xususiyatlari bilan ham odamiyligini namoyish etishadi. Ularda vatanga bo'lgan mehr ham juda kuchli. Ushbu fikrlarni quyidagi parchadan hech izohsiz tushanamiz:

"O'sha kecha Azizning benzovoz mashinasi bortidan joy oldik. Esimda, otam mashinaga chiqayotib, tamakidoniga bir hovuch tuproq solib, ko'ziga surgan, keyin uni chap ko'krak cho'ntagiga joylashtirgandi."<sup>5</sup>

Amirning otasining keyingi umri Vatan sog'inchi bilan o'tdi. U keyingi umrini o'g'li Amirga bag'ishladi. O'g'lini kelajagi uchun hatto o'z sog'ligidan ham kechdi.

Amir birgina xatosi tufayli ham do'sti ham ukasi bo'lgan Hasanning umriga zomin bo'ldi. Albatta, bu hodisaga zamon, muhit eng asosiy sababdir. Lekin Amir Hasanga tuhmat qilmaganida balki hammasi boshqacha bo'lar edimi? degan savol kitobxonni o'ylantirishi aniq, albatta.

Amir endi jiyani, Hasanni o'g'li Suhrobni qutqarish uchun qasd qildi. Bu yo'lda ko'p mashaqqat chekkan bo'lsa ham, u maqsadiga erishdi. Endi Amirning butun umrlik vijdon azobi ancha yengillashdi.

Asar oxiri yana o'sha sevimli xotira bo'lmish varrak bilan yakunlanadi.

"Men yugurardim. Kap-katta erkak bir to'da bolalar ichida shataloq otib yugurar edim. Bahor nasimi yuzlarimga urilar, lablarimga esa Pinjsher darasi kengligida tabassum yoyilgandi.

Yugurardim...."<sup>6</sup>

3.X. Husayniy. "Shamol ortidan yugurib".-Toshkent:"Yoshlar matbuoti".2022. –B.56

4.X. Husayniy "Shamol ortidan yugurib".2022. –B.73

5.X Husayniy. "Shamol ortidan yugurib".-Toshkent:"Yoshlar matbuoti".2022.– B.75

6.X Husayniy "Shamol ortidan yugurib".-Toshkent:"Yoshlar matbuoti".2022.– B.205

Aslida, biz qanchalik katta bo'lmaylik, qalbimiz doim yoshligimizcha qoladi. Shunchaki taqdirimizdagi ayrim hodisalar bizni ulg'aytiradi. Ushbu asardagi Amir va Hasan qismati bu faqatgina ikki yosh bolaningina emas, balki butun bir Afg'on xalqining qismatidir. Yozuvchi bularni har bir kitobxonga his etirar ekan, umr o'tkinchi ekanligini, yaqinlarimizni ularning borligida qadrlashimizni, va eng muhimi bizni qalbimizda shukronalik tiyg'usini shakllantirishni istaydi. Insonlar bir -biriga yaxshilik qilmoq uchun dunyoga kelganlar va ulardan qoladigan yagona narsa ularning yaxshiligi va qilgan ezgu amallaridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÒYXATI:

1. Xolid H. "Shamol ortidan yugurib" .–Toshkent: "Yoshlar matbuoti" ,2022.
2. Xolid "Ming quyosh shu'lası".–Toshkent:"Yoshlar matbuoti".2022.
3. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES
4. OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary
5. Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №.2
6. Raxmiddinova S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR
7. //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 113-11
8. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xolid\\_Husayniy](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xolid_Husayniy).
9. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE  
VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies  
(CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 372-380./cy (да
10. Raxmiddinova S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 31-36.
11. Raxmiddinova S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 113-117.
12. Raxmiddinova S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 112.
13. Raxmiddinova S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.
14. Raxmiddinova S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ.. //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 132. Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. "Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – C. 20-22.
15. Бекова Н. Ж., Жалилова Л. Ж., Сайлиева З. Р. On a separate literary sources of the poetry collection " Sittai Zaruriya" by Alisher Navoi //Современная филология. – 2014. – C. 45-47.
16. Raxmiddinova S. Z. The Study of the Problems of Sufizm and Art in Navoi Studies //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 258-262.
17. Raxmiddinova S. Z. et al. OMINA SHENLIKO ‘G ‘LINING" VIJDON AZOBI" ASARIGA TAQRIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – T. 33. – №. 2. – C. 90-93.
18. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 372-380.
19. Raxmiddinova S. Z., Mahliyo B. FALAK NILUFARLARIDIN CHASHMAYI MEHR GAR O'LDI PAYDO //E Conference Zone. – 2022. – C. 93-96.
20. Raxmiddinova S. Z. et al. OMINA SHENLIKO ‘G ‘LINING" VIJDON AZOBI" ASARIGA TAQRIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – T. 33. – №. 2. – C. 90-93.
21. Raxmiddinova S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 112.



22. Rakhmiddinovna S. Z. The Study of the Problems of Sufizm and Art in Navoi Studies //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 258-262.
23. Raxmiddinovna S. Z., Bahromjonovna H. Z. USMON AZIM–ROST TUYG‘ULAR KUYCHISI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 3-6.
24. Rakhmiddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 31-36.
25. Rakhmiddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.
26. Dilbar K., Rakhmiddinovna S. Z. PROMOTER OF MUSLIM CLASSICAL LITERATURE" FORTY HADITH" //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 9.
27. Rahmiddinovna S. Z. ANBAR OTIN-DEMOKRATIK SHOIRA (“QAROLAR FALSAFASI” RISOLASI MISOLIDA) //SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN MODERN EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 7.
28. Kholikova N., Rakhmiddinovna S. Z. THE GLOSS OF COLORS IN THE POETRY OF ABDULLA ORIPOV //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 9.
29. Rakhmiddinovna S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 132.